




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**11.00.02 – IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA IXTISOSLIGI
BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Annotatsiya:

Dastur 11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligiga kiruvchilar uchun 5A140602 – Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligining 2023-yilda tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Usmanov M.R.	–	SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası mudiri, geografiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov A.X.	–	SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dosenti, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Muxamedov O.L.	–	SamDU, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası dosenti, geografiya fanlari nomzodi

Dastur Geografiya va ekologiya fakultetining 2025-yil 27-sentabrdagi 2-sonli Kengash yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi – tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yildan-yilga keskinlashib borishi insonning tabiat qonuniyatlarini chuqur bilishni, shuningdek, tabiatdan hamda uning resurslaridan tejab-tergab, oqilona foydalanish, antropogen landshaftlarning xo'jalik nuqtayi nazaridan buzilishi va oqibatlari, geoeologik muammolar, inson salomatligi, nozogeografik vaziyat, global salomatlik, nozogeografik vaziyat, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalar, mintaqalar xo'jalikni hududiy tashkil etish, innovasion rivojlantirish, aholi va demografik muammolarni tadqiq etish, aholiga xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, mintaqalar rekreasiya va turistik resurslardan kompleks foydalanish bugungi geografiyaning asosiy tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Shuningdek, geografik tadqiqotlar hududlar barqaror rivojlanishini, inson geografiyasini, konstruktiv geografik tadqiqotlar va kartalashtirish masalalari xorijiy mamlakatlarda keng o'rganilishi geografiyaning amaliy ahamiyatini oshirmoqda. Shunga ko'ra iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani nazariy va amaliy jihatdan chuqur ko'nikma va malakaga mukammal ega bo'lgan ixtisosliklar bo'yicha ilmiy darajali kadrlar tayyorlash yuqorida qayd etilgan sohalardagi ta'lim tizimining negizi hisoblanadi.

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligining vazifasi – ijtimoiy-iqtisodiy, geosiyosiy masalalar, xo'jalikni hududiy tashkil etish, aholi va demografik muammolarni tadqiq etish, rekreasiya va turistik resurslar, tibbiy va servis xizmatlarini hududiy tashkil etish, joylashtirish, rivojlantirish va muammolarni va uning yechimi hamda sabablarini aniqlashdan iboratdir.

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlar uchun 5A140602 – Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisliklari o'quv rejasiga asosan 3 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: "Servis geografiyasi", "Mintaqaviy rivojlanishning geografik asoslari", "Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik" fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

Geodemografiya fani bo'yicha:

Geodemografiya ma'zmun mohiyati. Fanning ob'ekti, predmeti va vazifalari. Aholi ijtimoiy va tabiiy fanlarning o'rganish ob'ekti sifatida. Geodemografiya asoslari, siyosiy demografiya, harbiy demografiya, amaliy demografiya, mintaqaviy demografiya, demografik prognoz, iqtisodiy demografiya

fanlari bilan uzviyligi. Demografiya fanining obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va tadqiqot usullari. Demografiya fanining rivojlanish tarixi

Aholini hisobga olish va aholi ro'yxatlari, Dunyo aholisining o'sishi va taqsimlanishi, Tug'ilish darajasining hududiy farqlari, O'lim darajasi, o'rtacha umr ko'rish muddati va geografiyasi Aholi soni, dinamikasi, mutloq ko'payish, o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish, ko'payish sur'atlari. Dunyo aholisi soni va undagi geodemografik o'zgarishlar. Doimiy aholi soni, mavjud aholi soni, vaqtincha aholi soni mezonlari. Depopulyasiya hodisasi. Doimiy va mutloq aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar, aholi soni o'sishi yoki kamayishi bilan bog'liq muammolar.

Aholining yosh va jinsiy tarkiblari xususiyatlari. Aholi jins tarkibi shakllanishidagi omillar. Aholi o'limidagi jinslar nisbati. Dunyo mamlakatlari aholisi jins tarkibidagi geografik farqlar. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi. Aholining yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy xususiyatlari. Aholining yosh-jinsiy tarkibi modelining demografik piramidada aks etishi. Yosh klassifikatsiyasi.

Tug'ilish- demografik jarayon sifatida. Tug'ilish va fertilnost. Dunyoda tug'ilish samaradorligi va dinamikasi. Tug'ilishning xususiy va yosh bo'yicha koeffitsiyentlari, nikohsiz va nikohdagi tug'ilish. Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish. Aholining reproduktiv mayli va uni o'rganish bo'yicha O'zbekistonda o'tkazilgan maxsus tadqiqotlar.

Aholi o'limi va uning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi geografiyasi-aholi o'limi va tabiiy ko'payish. Aholi o'limi va uning yashash sharoiti bilan bog'liqligi. O'limning demografik jarayon sifatida o'rganilishi. O'limning umumiy va maxsus koeffitsiyentlari. O'limning turlari: perinatal o'lim, neonatal o'lim, postneonatal o'lim.

Aholining o'rtacha umr ko'rish va geografiyasi. Aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini aniqlash va uning ahamiyati. Salomatlik tushunchasining mohiyati. Aholi salomatligini baholash. Mehnatga qobiliyatini vaqtinchalik yo'qotishga olib keluvchi kasalliklar va nogironlik ma'lumotlari. Insonning o'zini saqlash mayli. Kasalliklar haqida zamonaviy ma'lumotlar. Kasallanish muammolari, kasalliklar xavfli omil sifatida. Nikoh ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida. Nikoh va uning ko'rsatkichlari, hududiy xususiyatlari. Nikohning omillari: nikohgacha va nikohdan keyingi omillar. Nikohni aniqlovchi ko'rsatkichlar tizimi. Nikohning aholi demografik rivojlanishiga ta'siri.

Nikohning bekor etilishi-ajralish. Ajralish hodisasi va uning sabablari va omillari. Ajralish darajasini aniqlovchi koeffitsiyentlari va uning hududiy xususiyatlari. Nikoh va ajralish o'rtasidagi bog'liqlik.

Aholi harakatining dunyoviy an'anlari. Geodemografik hodisalarning o'zaro bog'liqligi. Aholi harakati va iqtisodiy omillar. Demografik yondoshuvlar. Iqtisod va migratsiya. Huquqiy me'yorlarning demografik jarayonlarga ta'siri. Diniy urf-odatlar va boshqa an'analar. Maltus va optimum aholi soni nazariyasi. Geodemografik vaziyatning mintaqaviy tiplari va undagi o'zgarishlar.

Aholining yosh-jinsiy tarkibi, Aholining milliy tarkibi, Aholining diniy tarkibi, Aholining oilaviy tarkibi, Aholining irqiy tarkibi, Xalqlarning hududiy taqsimlanishi va tabaqlanishi, Mehnat resurslari.

Aholi punktlarining asosiy tiplari, Urbanizasiya jarayonining rivojlanishi, Qishloq aholisi va qishloqlarning hududiy joylashuvi, Demografik global muammolar.

Ma'lumki, dunyo aholisi XX asrning 2-yarmidan so'ng tez sur'atlar bilan o'sib borishi, tabiiy o'sishning yuqoriligi, tug'ilishga nisbatan o'lim darajasining kamayishi, dunyo aholisi 1962-1972 yillarda o'rtacha 2,06% ga 1973-1983 yillarda 1,80% ga, undan keyingi yillarda esa yanada pasayib borishi,. BMT malumotlariga ko'ra, sayyoramiz aholisining soni 2050 yilga borib 12 mlrd, 2100 yilda esa 19 mlrd.ga yetishi prognoz qilinishi, 2050 yilda borib, dunyo aholisining yarmi Osiyoda, 25% – Afrikada, 8,2% – Lotin Amerikasida, 7,4% – Yevropada va 4,7 % – Shimoliy Amerikada yashashi, Dunyo aholisining o'sishiga va kamayishiga omillar, Dunyo aholisining ko'payib borishi juda ko'p muammolarni keltirib chiqarishi.

Aholi migrasiyasi, Aholi migrasiyasi bu ijtimoiy jarayon, ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi va aholi sonining o'sishi, Migrasiya aholining joylashuvi va uning hududiy tarkibiga ta'siri, aholi migrasiyasi chuqur geografik jarayon, aholisining o'sishiga tabiiy o'sish hamda mexanik o'sish, ya'ni aholi migrasiyasi, Dunyoning turli mamlakatlarida ko'chib kelgan va ko'chib ketgan aholi, migrasiyasi-aholi sonining ko'payishi yoki kamayishiga, aholining yosh tarkibi va jinsiy tarkibining o'zgarishiga, ba'zi mamlakatlarda jamiyatning rivojlanishiga ta'siri, Aholi migrasiyasi har xil sabablarga ko'ra yuzaga kelishi.

Aholisi soni, Aholining takror barpo bo'lishi va migrasiyasi, Aholining yosh-jinsiy tarkibi, Iqtisodiy rayonlar geodemografiyasi, Samarqand viloyati demografiyasi O'zbekiston aholisining tabiiy harakati va umumiy demografik ko'rsatkichlar. O'zbekiston aholisining takror barpo bo'lish xususiyatlari. Aholi tarkibi va dinamikasi xususiyatlari. Demografik vaziyatning hududiy jihatlar. O'zbekistonda demografik siyosat masalasi. Respublika aholisi geodemografik rivojlanishi va uning hududiy tarkibi.

Geodemografiya ma'lumotlari aholi ro'yxatlari, so'rovlar, ma'muriy yozuvlar, demografik statistika va masofadan zondlash ma'lumotlari kabi

manbalardan olinadi. Ushbu manbalar aholi soni, tuzilishi, taqsimoti va dinamikasi haqida zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

Geodemografiyaning nazariy asoslari aholi dinamikasini fazoviy naqshlar bilan bog'laydigan tushunchalarni o'rganadi, bunda tug'ilish, o'lim, migratsiya va ularning geografiya bilan o'zaro ta'siriga e'tibor qaratiladi. Ushbu nazariyalar aholi vaqt va makonda qanday o'zgarishi va taqsimlanishini tushuntiradi.

Mehnat resurslarini o'rganish iqtisodiy faol aholiga, ya'ni ish bilan band va ishsiz shaxslarga qaratilgan. Unda mehnat turlari (rasmiy, norasmiy, malakali, malakasiz) va mehnat resurslarining ishtirok etish darajasi, bandlik darajasi hamda ishsizlik darajasi kabi asosiy ko'rsatkichlar qamrab olinadi.

Inson resurslari va rivojlanishi insonlarning ko'nikmalarini, ta'limini, sog'lig'ini va umumiy farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu ularning unumdorligi va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. U inson kapitaliga investitsiya qilishni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida ta'kidlaydi.

Geodemografik siyosat va aholi rejalashtirish aholining o'sishi, taqsimoti va tarkibini boshqarishga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayonda oilani rejalashtirish, migratsiyani boshqarish va mintaqaviy rivojlanish tashabbuslari kabi strategiyalar qo'llaniladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning metodologiyasi fani bo'yicha:

Zamonaviy fanlar tizimi. Geografiya yagona fan bo'lib hisoblanadimi yoki turli fanlar tizimidan iboratmi? Geografik tadqiqotlar maydoni. Tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlar qirrasida geografik bilimlar tizimining shakllanishi. Iqtisodiy va sotsial (ijtimoiy) geografiyaning ichki tarkibi. Tadqiqot subyekti, obyekti va predmeti tushunchalari o'rtasidagi farqlar. Geografik bilimlar tizimida tadqiqot obyekti umumiy bo'lishi mumkinmi? Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti. Ijtimoiy geografik simplekslar (elementar obyektlar), taksonlar (zonalar, rayonlar), birikmalar, majmualar, tizimlar, geografik jarayonlar va munosabatlar, joylashtirish va mintaqaviy rivojlanish omillari ijtimoiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlar obyekti sifatida. Iqtisodiy rayonlashtirishning metodologik masalalari. "Fan" tushunchasining ta'rifi. Fanning qimmati. Tomas Kunning fanda paradigmalar almashinuvi konsepsiyasi. «Paradigma» tushunchasi. Paradigmalar almashinuvi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi borasidagi Kunning muqobil qarashlari. Imre Lakatosning tadqiqotchilik dasturlari konsepsiyasi. Karl Poppening fanlar rivoji xususidagi qarashlari. Falsafa va geografiya. Fanlar nazariyasi va metodologiyasi. Geografiya fani nazariyasi va metodologiyasi. Ijtimoiy geograflar orasida birmuncha mashhur bo'lgan asosiy falsafiy tamoyillar. Turli falsafiy

maktablar tarafdorlarining geografik tizimlar va jarayonlarning obyektiv mavjudligi va ularni anglash muammosi borasidagi qarashlari.

Tadqiqot usuli. Fan metodologiyasi va ilmiy tadqiqotlar metodikasi tushunchalari o'rtasidagi farqlar. Bilishning umumilmiy va maxsus usullari. Ilmiy dunyoqarash usullari. *Ilmiy tadqiqot metodikasini* tashkil etuvchi materiallarni tanlash, faktlarni (adabiyotlar, vizual, xulq-atvor, statistik, kartografik, matematik, balans va boshqalar) tahlil qilish va umumlashtirishning o'ziga xos usullari.

Induksiya va deduksiya ilmiy tafakkur (bilish) ning usuli sifatida. Ilmiy tushuntirishning induktiv yo'li. Xususiylikdan umumiylikka. Ilmiy tushuntirishning deduktiv yo'li. Umumiylikdan xususiylikka. Ilmiy farazlarni qo'yish. Ilmiy farazni tekshirish. Nazariya va qonunlarning qurilishi. Nazariy va empirik tadqiqotlar o'rtasidagi bog'liqlik.

Geografiya fanining vujudga kelishi

Antik geografiya. Anaksimandr. Gippokrat. Pifey. Aristotel. Eratosfen – “geografiyaning otasi” Strabon. Ptolemeyning geografik qarashlari. Arab geograflarining dunyoqarashlari. O'rta Osiyolik allomalarining geografiya faniga qo'shgan hissasi. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa mahalliy olimlarning geografiya faniga oid fikrlari. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida geografik g'oyalarning rivojlanishi. Kameral statistika paradigmasi. Ekspeditsiya-tadqiqotlari paradigmasi.

Geografiyaga boshqa fanlarning ta'siri. Statistika va geografiya. G.Axenval, V.Byushing, V.Petti, V.N.Tatishev, M.V.Lomonosov. Immanuil Kant asarlarining geografik ahamiyati. Geografik kashfiyotlar va sayohatlar. A.Gumboldt va geografik g'oyalarning rivojlanishi. K.Ritterning geografik qarashlari. I.Tyunen – ilk hududiy modellar muallifi. K.I.Arsenev iqtisodiy rayonlashtirishning asoschisi. Elize Reklyu. A.Gettnerning xorologik konsepsiyasi.

F.Ratselgacha bo'lgan davrdagi deterministik g'oyalar. Geografik determinizm. Possibilizm. N.N. Baranskiyning geografik nigilizm va geografik fatalizm borasidagi tanqidiy qarashlari. Dastlabki landshaft tamoyillari. Mintaqaviy tadqiqotlar. Richard Xartshornning geografiya muammolari borasidagi qarashlari.

Fred Sheferning geografik qonunlarning shakllanishi borasidagi chaqirig'i. 1960-1970 yillarda AQSH va Evropada matematikaning urfga aylanishi. Fanga tizimli yondoshuvni tadbiq etish. Karl Lyudvig fon Bertalanfi, Devid Xarvi bo'yicha “tizim” tushunchasining mohiyati. Tizimli paradigma (hududiy tuzilmalar paradigmasi). R.Dj.Chorli va B.A.Kennedi bo'yicha tizimlarning to'rt tipi. Geografik tizimlarga misollar.

Geograflarning psixologiyaga bo'lgan qiziqishining ortishi va yangi yo'nalish – xulq-atvor geografiyasining shakllanishi. Xulq-atvor usulini qo'llash metodologiyasi. Geografiyada makon va zamon. Makon va zamon usulidan

foydalanish imkoniyatlari. Sotsial muammolarni geografik o'rganish. Qashshoqlik geografiyasi.

A. Smit, D. Rikardo ilmiy tadqiqotlari. "Tyunen xalqalari" modeli. Sanoat shtandorti g'oyasining shakllanishi. Valter Kristallerning "markaziy o'rinlar" modeli va Avgust Lyoshning "iqtisodiy landshaft" tamoyili. O'sish qutblarini nazariyasi. O'sish qutblarini aniqlash metodologiyasi.

Inson va tabiatning o'zaro ta'sirini o'rganishda geografiyaning o'rni. "Ekologiya", "tabiatdan foydalanish", "ijtimoiy ekologiya", "inson ekologiyasi", "geoekologiya" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining geografik tadqiqotlarga ta'siri. Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishga ekologik omilning ta'siri. Ortiqcha xarajatlar. Eksternallarning salbiy ta'siriga qarshi kurash usullari.

Turli xil kasalliklarning tarqalishi bilan bog'liq tadqiqotlar. Tanatologiya. Onkogeografiya. Tibbiy geografik kartografiya. Mintaqaviy tibbiy geografiya (tibbiyot mamlakatshunosligi). O'choq hosil qiluvchi kasalliklar geografiyasi. Mavsumiy kasalliklar va ularni geografik o'rganish. Tibbiy-geografik tadqiqot usullari.

Geografik prognoz. Geografik prognozlar tasnifi: ob'ekt bo'yicha, tarkibi bo'yicha (qisman va yaxlit prognozlar), hudud bo'yicha, vaqt bo'yicha, yondoshuvlar bo'yicha. Ijtimoiy geografik prognozning uslubiy asoslari. Prognozlash usullari. Prognozlash bosqichlari. Geografik prognozlarga misollar. Ijtimoiy fanlar tadqiqotida statistik usullar ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va talqin etish uchun tizimli asos yaratadi hamda inson xulqi va jamiyatdagi qonuniyatlar, munosabatlar va tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu usullar tadqiqotchilarga murakkab ijtimoiy hodisalarni miqdoriy tushunchalarga aylantirish imkonini beradi, shu orqali dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va nazariyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Tavsifiy statistika ma'lumotlarni yig'ish, tartibga solish, tasniflash va vizualizatsiya qilish orqali ularni tushunarli shaklda taqdim etishga yordam beradi. U o'rtacha qiymatlar, dispersiya, taqsimot va boshqa ko'rsatkichlar orqali ma'lumotlarning umumiy xususiyatlarini yoritadi.

Xulosa chiqaruvchi statistika kichik tanlovdan olingan ma'lumotlar asosida butun populyatsiya haqida umumiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu usul ehtimollik nazariyasiga asoslanib, gipotezalarni sinash, parametrlarni baholash va prognozlar qilishni o'z ichiga oladi.

Inferensial statistika tadqiqotchilarga tanlama ma'lumotlar asosida butun populyatsiya haqida umumiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. U ehtimollik, tanlama olish, gipotezalarni sinash va ishonch oraliqlarini o'z ichiga oladi, bu esa

kuzatilgan ma'lumotlardan tashqarida ishonchli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Gipotezani sinash – bu namunadagi ma'lumotlarga asoslanib, populyatsiya haqidagi taxminni qo'llab-quvvatlash yoki rad etish uchun yetarli dalil mavjudligini aniqlashga yordam beradigan statistik usuldir. Parametrik sinovlar – t-testi, z-testi, F-testi va ANOVA – odatda ma'lumotlar normal taqsimot kabi muayyan shartlarga javob berganda qo'llaniladi.

Chi-kvadrat testi kategorik o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikni tekshirishda qo'llaniladi, ANOVA (dispersiyaning tahlil qilish) esa uch yoki undan ortiq guruhlarining o'rtacha qiymatlari sezilarli farq qiladimi-yo'qligini aniqlaydi. Ikkalasi ham ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik va farqlarni tahlil qilish uchun muhim vositalardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017.
3. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно-терминологический словарь. – М., 1980.
4. Асанов Г.Р. Социал-иқтисодий география: термин ва тушунчалар изоҳли лугати. – Т., 1990.
5. Анна Баттимер Путь в географии. – М.: Прогресс, 1990
6. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013. – 307 с.
7. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. – Т.: «Фан ва технология», 2014. – 368 б.
8. Абдалова З.Т., Тожиева З.Н. Иқтисодий география. Ўқув қўлланма. – Т.: «иқтисод-молия», – 2013. – 212 бет.
9. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. Демография. Ўқув қолланма. – Т.: Ношир нашриёти, 2011.
10. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана. – Т., 2009.
11. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Т., 2002.
12. Баранский Н.Н. Научные принципы географии. Избр. труды. – М., 1980.
13. Болтаев М. Марказий Осиё давлатлари иқтисодий ва ижтимоий географияси. (Ўқув қўлланма). – Т., 2003.
14. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси демография асослари билан. – Т.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
15. Джонсон Р.Дж. География и географы. – Л., 1989.
16. Жекулин В.С. Введение в географию. – Л.: ЛГУ, 1989.
17. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.
18. Назаров М., Тожиева З. Ижтимоий география. – Т., «Университет», 2003.
19. Воронов А.Г. Медицинская география. – М.: Наука, 1989.
20. Комилова Н.Қ, Солиев А.С. Тиббиёт географияси. – Т.: Истиклол, 2005.
21. Комилова Н.Қ, Равшанов А. Тиббиёт географияси ва глобал саломатлик. – Тошкент, 2019.

22. Шошин А.А. Основы медицинской географии. – М.-Л. Изд. Академии наук, 1962.
23. Чаклин А.В. Медицинская география. – М., Знание. 1977.
24. Родионова, И. А. Экономическая и социальная география мира. В 2 т. Т. 1,2 : учебник для бакалавров. 2-е изд., испр. и доп. – М., 2015. – 431 с.
25. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методлар ва амалиёт. – Т.: Камалак, 2013.
26. Солиев А.С., Маҳмадалиев Р. Иқтисодий ва ижтимоий география асослари. – Т., 2005.
27. Саушкин Ю.Г., Введение в экономическую географию. – М., 1970.
28. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси // Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. – Т.: Университет, 2014.
29. Солиев А.С., Усманов М.Р. Туризм географияси. – Самарканд, 2005
30. Социально-экономическая география: понятие и термины. – Смоленск: Ойкумена, 2013.
31. Скопин А.Ю. Введение в экономическую географию. – М.: Владос, 2001.
32. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Фан ва технология», 2010. – 276 б.
33. Тожиева З.Н. Статистиканинг умумий назарияси. – Т., 2000. – 58 б.
34. Тожиева З.Н. Иқтисодий ва демографик статистика. – Т., 2002. – 160 б.
35. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. Под. Ред. И.А.Родионовой. – М.: Экон-Информ., 2008.
36. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья. Под ред. М.Ратанова. – М., 2004.
37. Экономическая и социальная география стран ближнего зарубежья – М., 2004. (Ратанова М таҳрири остида).
38. Қажумов А., Пардаев Ғ, Исломов И. Иқтисодий ва ижтимоий география. – Т., 2007.
39. Mamatqulov X.M. Xalqaro turizm geografiyasi. – Samarqand, 2012.
40. Mirzayev M.A. Turizm asoslari o‘quv qo‘llanma. – Т., 2011.
41. Tuxliyev I. va boshqalar. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – Т., 2010.
42. Usmonov M. Turizm geografiyasi (o‘quv qo‘llanma). – Samarqand, 2019.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100